



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI ELEKTR ENERGIYASI, NEFT MAHSULOTLARI VA  
GAZDAN FOYDALANISHNI NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI  
“O‘ZENERGOINSPEKSIYA”  
BUYRUG‘I**



**50-son**

**“ 25 ” dekabr 2023-yil**

**“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlarni  
tasdiqlash to‘g‘risida”**

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida” O‘RQ-419-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6013-son, 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son, 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-son farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 62-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. “O‘zenergoinspeksiya”ning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;
  - “O‘zenergoinspeksiya”, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;
  - “O‘zenergoinspeksiya”, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom 3-ilovaga muvofiq;
  - “O‘zenergoinspeksiya”, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;
  - “O‘zenergoinspeksiya”, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq;
  - “O‘zenergoinspeksiya”, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 6-ilovaga muvofiq;
  - “O‘zenergoinspeksiya”, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma 7-ilovaga muvofiq;
  - “O‘zenergoinspeksiya”, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida

Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;


- "O'zenergoinspeksiya", uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizam 9-ilovaga muvofiq;

- "O'zenergoinspeksiya", uning hududiy va tarkibiy bo'linmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ijro intizomi va murojaatlar bo'limi (O.Yarmatov) ushbu buyruq hamda buyruq bilan tasdiqlangan ilova hujjatlarini ijro etish uchun inspeksiyaning markaziy apparati va hududiy boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**Inspeksiya boshlig'i**



**I.Nimatullayev**